
O'zini-o'zi band qilmoqchi bo'lgan yoshlar qo'llab-quvvatlanmoqda

Rishton tumanida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan hamda kasb-hunarga iqtidorli bo'lgan yoshlarga ish faoliyatini boshlashlari uchun "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan kerakli jihozlar taqdim etish ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda.

Aytish joizki, Rishton tumanida bugungi kunda ro'yxatga kiritilgan yoshlarga ko'mak berish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Jumladan, bugun tumanida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 250-sonli qarori asosida "Yoshlar jamg'armasi" mablag'lari hisobidan 25 nafar yoshlarga o'zini-o'zi band qilishlari va daromad topishlari uchun subsidiya asosida mehnat qurollari berildi.

Tumanda o'zini-o'zi band qilish niyatida bo'lgan yoshlar tuman hokimligi tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

2022-08-05 14:24:07